

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI HAMDA ULARNING TAHLILI

Abduraxmatova Nodira Oybek qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Lingvistika termini qator Yevropa mamlakatlari: ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarda faol qo'llanilib, til haqidagi fanni anglatadi. Ushbu so'zning o'zagi lingua bo'lib, til degan ma'noni beradi. Binobarin, lingvistika terminining o'zbek tilidagi muqobili, ma'nodoshi tilshunoslik bo'lib, ular o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi. Lingvistika yoki tilshunoslik fani o'ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan aloqa qurolini - tilni sistema sifatida - bir butun obyekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko'rinishlarda, shakllarda kuzatiladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomondan o'rganish, tekshirish lozimligidan va bu ilmiylik nuqtayi nazaridan mutlaqo to'g'ri ekanligidan kelib chiqadi.

Kalit so'zlar: lingvistika, tilshunoslik, ta'lim, ispan tili, ijtimoiy hodisa, tahlil.

Аннотация: Термин “лингвистика” активно употребляется в ряде европейских стран: английском, французском, немецком, испанском, русском и других языках и обозначает науку о языке. Корень этого слова — lingua, что означает язык. Таким образом, узбекским эквивалентом термина “лингвистика” является “лингвистика”, и они являются синонимами друг друга. Наука языкознание изучает и анализирует средство общения — язык как систему — как целостный объект, который сам по себе является сложным социальным явлением. В этом процессе он наблюдается в различных формах и видах. Это вытекает из природы языка, который по своей природе социален, и необходимости изучать и рассматривать его с разных сторон, и это абсолютно правильно с научной точки зрения.

Ключевые слова: языкознание, лингвистика, образование, испанский язык, социальное явление, анализ.

Lingvistika termini qator Yevropa mamlakatlari: ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarda faol qo'llanilib, til haqidagi fanni anglatadi. Ushbu so'zning o'zagi lingua bo'lib, til degan ma'noni beradi. Binobarin, lingvistika terminining o'zbek tilidagi muqobili, ma'nodoshi tilshunoslik bo'lib, ular o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi.

Lingvistika yoki tilshunoslik fani o'ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan aloqa qurolini - tilni sistema sifatida - bir butun obyekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko'rinishlarda, shakllarda kuzatiladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega

bo'lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomondan o'rganish, tekshirish lozimligidan va bu ilmiylik nuqtayi nazaridan mutlaqo to'g'ri ekanligidan kelib chiqadi.

Lingvistika nihoyatda qudratli ma'naviyat belgisi, millat boyligi bo'lgan tilni o'rganish jarayonida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

— *Dinamik lingvistika*: Dinamik lingvistika, asosan, tilni real mavjudligida, kommunikativ jarayonda turlicha vazifalarni faol bajarishda, «taraqqiyotda», o'zgarishda tadqiq qiladi.

— *Statik lingvistika*: Statik lingvistika til faoliyatidagi to'liq sinxronlashgan muayyan bir davrni (bo'lakni) ajratadi va uni tasvirlaydi. Tilshunoslikning ushbu sohasi, dinamik lingvistikadan farqli, tildagi rivojlanish va o'zgarish jarayonidan mutlaqo chetlashgan, unga yaqinlashmagan holda tilning hozirgi - zamonaviy davri bilan bog'liq ma'lum bir «qotgan» qismini - holatini tekshiradi.

— *Sinxron lingvistika*: Sinxron lingvistika statik va struktural lingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning ma'lum bir davrdagi «qotgan», «turg'un» holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

— *Diaxron lingvistika*: Diaxron lingvistika dinamik va atomistik lingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning taraqqiyot, til birliklarining esa rivojlanish qonuniyatlari hamda natijalarini o'rganadi.

— *Intralingvistika*: Intralingvistika (ichki lingvistika). Ichki lingvistika til birliklarining sistem aloqasini, munosabatini ekstralingvistik faktorlarga bog'liq bo'lmagan holda o'rganadi. Ichki lingvistikaning tadqiqot manbai bo'lib fonologiya, leksikologiya va grammatika hisoblanadi.

— *Ekstralingvistika*: Ekstralingvistika (tashqi lingvistika). Tashqi lingvistika tilning taraqqiyoti va vazifasini ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-tarixiy, etnik, jo'g'rofiy kabi faktorlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Shunga ko'ra, ushbu lingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifatida tekshiradi.

— *Paralingvistika*: Paralingvistika bevosita nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lib, nutq jarayonida fikr ifodalash bilan bir vaqtda yuzaga keluvchi, so'zlashuv nutqining doimiy hamrohi bo'lgan qo'l va yuz harakatlarini(imo-ishora, mimika), nutqning balandligi, ekspressiv-emotsional bo'yoq kabi qator jihatlarni o'rganuvchi sohadir.

— *Psixolingvistika*: Psixolingvistika psixologiya va lingvistika fanlarining umumlashmasi (sintezi) sifatida nutq jarayonini mazmun nuqtayi nazaridan, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo'naltirilganligi, shunga muvofiqligi jihatidan o'rganadi. U nutqdagi - fikr ifodalashdagi shakl va mazmun birligiga alohida e'tibor beradi. Psixolingvistika lisoniy imkoniyatlar asosida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayoni (fikr almashtirish-ifodalash va anglash)da ruhiy holatlarga, bunda sharoit (situatsiya), o'xshashlik (analogiya), farqlash (differensiatsiya), ta'sirchanlik, so'zlovchi va tinglovchi ruhiy holati masalalariga alohida e'tibor beradi.

— *Sotsiolingvistika*: Sotsiolingvistika sotsiologiya va lingvistika fanlarining zaruriy va mantiqiy bog'liqligidan hosil bo'lib, jamiyat va til (til va jamiyat) munosabati masalasi bilan shug'ullanadi. U tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan sotsiolingvistikaning eng muhim, asosiy muammosi tilni - til tabiatini ijtimoiy hodisa sifatida tekshirish, uning jamiyatdagi, tilshunoslik fanidagi o'rni va ahamiyatini belgilashdir. Sotsiolingvistika, asosan, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy hayot, taraqqiyot hodisalari, faktlari o'rtasidagi bog'liqlikni, ushbu bog'liqlikning sabablarini o'rganadi. Anig'i, mazkur soha jamiyatning yashash va rivojlanishida tildagi ijtimoiy hayot, ya'ni, tashqi-ekstralingvistik faktorlarning (omillarning) ta'siri natijasida hosil bo'lgan hodisalarni, jarayonlarni, o'zgarishlarni tahlil qilib boradi. Demak, sotsiolingvistika ijtimoiy faktorlarning tilga qanday ta'sir qilishi, til sistemasida (strukturasida) qanday namoyon bo'lishi, qanday shaklda aks etishi kabilarni tadqiq qiladi.

Eslatamiz, sotsiolingvistika statistik ma'lumotlar, aholi ro'yxati va anketa ma'lumotlari metodikasi bilan o'z faoliyatini kengaytirib boradi.

— *Matematik lingvistika*: Matematik lingvistika tilni o'rganish va tasvirlash jarayonida matematik usullarning (masalan, statistik usul, informatsiya nazariyasi kabilarning) qo'llanish imkoniyatlarini tekshiradi.

— *Kompyuter lingvistikasi*: Kompyuter lingvistikasi amaliy tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, uning asosiy maqsadi tilshunoslikka oid muammolarni kompyuter vositasida, bevosita uning "rahbarligida" hal qilishdir. Aniqrog'i, kompyuter lingvistikasi tillarni o'qitish (o'rganish), muayyan fanga oid bilimlarni baholash, matnlarni tahrirlash, bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish, statistik tadqiqotlar olib borish kabi qator jarayonlarda faol xizmat qilmoqda.

— *Kognitiv lingvistika*: Kognitiv lingvistika tilshunoslikdagi eng yangi yo'nalishlardan biridir. Ushbu tilshunoslik kognitologiya (inson bilimini o'rganuvchi fan) va lingvistika fanlarining o'zaro zaruriy bog'lanishidan, hamkorlikda ish olib borish maqsadida yuzaga kelgan.

— *Pragmalingvistika*: Pragmatik lingvistika struktur tilshunoslik yutuqlari, natijalari asosida shakllangan yangi bosqichdagi fahmiy (emprik) tadqiqotlar, izlanishlar natijasidir. U lisoniy birlikning qo'llanilish vaziyatini, nutqiy faoliyatini sistema sifatida oladi. Shunga ko'ra muayyan birlikni nutqiy faollikda, voqelanishda, nutqda namoyon bo'lishda turli nolisoniy omillar va turli sathlar bilan hamkorlikda, ular bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganadi, tekshiradi.

— *Lingvokulturalogiya*: Lingvokulturalogiya tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari asosida shakllandi. U madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganadi.

Xullas, lingvistika fani umumiylik sifatida, qayd etilganidek, turlicha xususiyliklari, sohalari orqali til sistemasini butun mohiyati, murakkabligi bilan, kommunikativ cheksiz imkoniyatlari bilan tadqiq qiladi. U ayni jarayonda qator fanlar bilan o'zaro aloqada, hamkorlikda ish olib boradi, til va jamiyat, til va tarix, til va taraqqiyot, til va tafakkur, til va nutq kabi o'ta dolzarb va o'ta murakkab masalalarning yoritilishida faol ishtirok etadi.

Lingvistika fani jamiyat taraqqiyotining, gullab-yashnashining eng muhim, eng asosiy, tengi yo'q mezonlaridan biri til - aloqa quroli ekanligini tasdiqlash va isbotlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u ta'lim oluvchiga ona tili imkoniyatlarini-ayni bir fikrni, narsa-hodisani yuzlab usullar bilan ifodalash yo'llarini yetkazish bilan unda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ona tilida fikrlash va ona tili qurilishining o'ziga xosligi, boshqa tillardan tubdan farq qilishi, olamni "o'zicha" aks ettirishni singdirish bilan milliy ong, milliy dunyoqarash, milliy g'urur va mafkurani shakllantirishda mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Casares, J. Introducción a la lexicografía moderna. Madrid: CSIC, 1950. 354 p.
2. Prieto, M., Prieto J.M. Asi Habla El Mexicano: Diccionario Basico de Mexicanismos. México, PanoramaEditorial, 1984. 142 p.
3. Sánchez, M. J. La revolución peruana: ideología y práctica política de un gobierno militar, 1968-1975. Universidad de Sevilla, 2002. 84 p.
4. Анорбоева С. А. Формирование переводческой компетентности (на примере: бакалавриат и магистратура) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 337-348.
5. АНОРБОЕВА С. Формирование профессиональной компетентности переводчика //Journal of Research and Innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 35-39.
6. ANORBOYEVA, S. (2023). "SHADOWING" METODI ORQALI ISPAN TILI MASHG'ULOTLARIDA TALABALARDA TARJIMONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH . Journal of Research and Innovation, 1(11), 3–6. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jorai/article/view/807>
7. Анорбоева С. А. СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ ПЕРЕВОДЧИКОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 11-22.
8. АНОРБОЕВА, С., & ШОДИКУЛОВА, Ш. (2023). К ПРОБЛЕМЕ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ВЫСШЕМ

- ОБРАЗОВАНИИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(3), 22–26. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/111>
9. АНОРБОЕВА, С. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕРЕВОДЧИКА (НА ПРИМЕРЕ: БАКАЛАВРИАТ И МАГИСТРАТУРА). Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 120–127. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/524>
 10. Aborboyeva S. ON THE CONCEPT OF TRANSLATION COMPETENCE AS A MULTISPECTIVE THEORETICAL CONCEPT //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 8.
 11. Solikha, A. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 2(3), 9–12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11178339>
 12. ANORBOYEVA, S. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 2(3), 9–12. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/1263>
 13. Солиха Анорбоева, Нилуфар Сабирова. Современная модель профессиональной компетенции переводчика в контексте системы подготовки переводчиков в вузах. O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. 2024-1: 110-127.
 14. Анорбоева С. (2024). ПОДГОТОВКА ПЕРЕВОДЧИКОВ С ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 176-180. <https://doi.org/10.2024/5mckbz69>
 15. АНОРБОЕВА, С. (2024). SYSTEMS OF TRANSLATOR TRAINING IN UZBEKISTAN UNIVERSITIES AND A MODERN MODEL OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A TRANSLATOR. *News of the NUUZ*, 1(1.10), 63-66. <https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.10.4534>
 16. АНОРБОЕВА С. ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕРЕВОДЧИКА ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕХНИЧЕСКОМУ ПЕРЕВОДУ //Тараққийёт тадқиқотлари: илмий-амалий анжуманлар материаллари тўплами. – 2024. – Т. 2. – №. 16. – С. 30-33.
 17. ANORBOYEVA S. STILISTIK VA PRAGMATIK JIHATDAN TARJIMA TURLARI //Замонавий тадқиқотлар ахборотномаси. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 3-6.